



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



“BOBURNOMA”DA IJODKORLARGA MUNOSABAT ATTITUDE TOWARDS CREATORS IN “BABURNAMA”

Fayzullayeva Obidaxon Xolbekovna
filologiya fanlari doktori (DSc),
Guliston davlat universiteti professori
E-mail: obidaxonfayzullayeva@gmail.com
[ORCID: 0009-0001-8233-9870](https://orcid.org/0009-0001-8233-9870)
[DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026./FRRQ3599](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./FRRQ3599)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida o‘ziga zamondosh bo‘lgan o‘nlab ijodkorlarga munosabati, ularga adabiyotshunos sifatidagi bergan bahosi xususida so‘z boradi. Bobur mirzoning ustoz ijodkor Alisher Navoiy siymosiga yuksak ehtiromi va cheksiz hurmati xususida ham qisman so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: memuar asar, ilmi aruz, san’atkorlik, ahli shuaro, ijobiy va salbiy baho, realistik tasvir, masnaviygo‘ylik.

Annotation. This article discusses Zahiriddin Muhammad Babur's attitude to dozens of his contemporaries in his work "Boburnoma" and his assessment of them as a literary critic. Babur Mirzo's high respect and boundless respect for the figure of the master and creator Alisher Navoi is also partially discussed.

Keywords: memoir, scientific statement, artistry, people's slogan, positive and negative assessment, realistic depiction, masnavi-like style.

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik ijodkori Zahiriddin Muhammad Bobur yaratgan adabiy, ilmiy meros nafaqat millat ma’naviy xazinasiga qo‘shilgan javohirot, balki bashariyat xazinasining dur-u javohirot deyish mumkin.

“Boburnoma” asarida adabiyot va san’at ahliga alohida e’tibor qaratilgan. Kitob muallifi Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Binoiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Abdulloyi, Mir Husayn Muammoiy, Shayhimbek Suxayliy, Ahmad Hojibek, Shoh Muzaffar kabi ijodkorlar va Mullazodai Mullo Usmon, Mir Murtoz, Qozi Ixtiyor kabi ilm ahllari, shuningdek, Qulmuhammad Udiy, shayxiy Noiy, Husayn Udiy, Shohquli G‘ijjakiy, G‘ulom Shodiy, Mirazu kabi o‘z davrining mashhur san’atkorlari, sozanda va bastakorlari haqida ham qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

Bobur “Boburnoma”da ellikka yaqin ijodkorlar haqida o‘ziga xos ma’lumotlarni taqdim etgan. Faqat ma’lumot berib qolmasdan ularning ijodlariga baho bera bilgan. Yutuq va kamchiliklarini ko‘rsata olgan. Ayrimlarining arziqli ijod namunalari parchalar va baytlarini keltirib o‘tadi. Bobur o‘z davrining yetuk adabiyotshunosi sifatida bir qator forsiygo‘y va turkiygo‘y shoir, adib va olimlarga o‘z munosabatini qat’iylik bilan bildiradi. Ayrimlarining ijod

namunalarini tahlilga tortadi. Ijod namunasiga xolis va nisbatan keskin munosabat Bobur adabiy qarashlarining asosini tashkil etadi. Uning adabiyotshunos olim sifatidagi “yomon emasdir” degan bahosi yuqori baho o'rnida ko'rilishi mumkin. Undagi ijodkorlarga munosabat o'sha adibning ijod namunasiga berilgan bahosidan kelib chiqib shakllantirilganligi tahlillardan ayonlashadi.

“Boburnoma” asarida bir yarim mingdan ortiq kishilarning ism-shariflari tilga olingan, lekin ular orasida buyuk bobokalonlarimiz Mir Alisher Navoiy ismi alohida e'tirofqa sazovor ekanligi uning ismi asar dvomida o'n olti marta eslatilganligidan ham ko'rinadi.

“Boburnoma”da 1505–1506-yil voqyealari bayonida Husayn Bayqaroning amirlari bayonida Alisher Navoiyga alohida o'rin ajratgan. Xususan, “*Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hyech kim oncha ko'p va xo'p aytgon emas*” [Bobur Z.M., 2018:259]. *Yana bir o'rinda* Navoiyning musiqa ilmini yaxshi bilganligini va shu boisdan o'zi kuylar yaratganini qayd etadi: “*...yana musiqada yaxshi nimalar bog'latur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur*” [Bobur Z.M., 2018:260].

Alisher Navoiyga ta'rif berilganda uning shohning xos kishisi ekanligiga alohida urg'u beriladi: “*Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas, balki suhbatdoshi edi. Yoshligida Husayn mirzo bilan maktabdosh ekandirlar. Xislatlari ko'p ekan.*

Bilmadim, nima sababdandir, Sul-ton Abusaid mirzo uni Hirotdan surgun qildi. U Samarqandga bordi. Necha yilki Samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy va homiysi edi. Alisherbekning mizoji noziklik bilan mashhurdir. El uning noziktabiatligini davlatining g'ururidan deb tasavvur qilardi. Unday emas ekan. Bu sifat unda tug'ma ekan. Samarqandda ekanida ham o'shanday nozikmizoj ekan” [Bobur Z.M., 2018:260].

“Boburnoma”da ulug' shoirning davlat amaldori sifatida Husayn Boyqaroga sadoqati va sahovati, uning bir bayti mazmuni halokatiga sabab bo'lgan xastalikka ishora ekanligi o'ta ixcham talqin etiladi (matn tabdili): “*Avvallari muhrdor edi. Faoliyatining o'rtalarida bek bo'lib, bir qancha vaqt Astrobodda hokimlik qildi. Oxiri amaldorlikni tark etdi. Mirzodan hech narsa olmas, balki har yili unga yirik-yirik mablag'lar tortiq qilar edi. Sul-ton Husayn mirzo Astrobod lashkaridan qaytganda istiqboliga chiqdi. Mirzo bilan ko'risha turib, holati o'zgardi, tik turolmadi, ko'tarib olib ketdilar. Tabiblar unga aslo tashxis qo'ya olmadilar. Ertasigayoq Tangri rahmatig'a bordi. Bir bayti o'z holati ifodasiga muvofiq kelgan:*

Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas,

Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'aylar” [Bobur Z.M., 2018:259].

“Boburnoma”dagi Alisher Navoiy haqidagi ma'lumotlari o'zining haqqoniyligi va mufassalligi bilan ajralib turadi va aynan shu jihati bilan o'sha davrda Navoiyning zamondoshlari tomonidan yaratilgan va daho ijodkorga munosabat bildirilgan boshqa asarlardan ajralib turadi. Bobur Alisher Navoiyga

mislsiz turkiyo'g'y shoir, jahon kam ko'rgan oliyhimmat murabbiy va homiy sifatida baho beradi.

Hirotning ilm ahllari haqidagi ma'lumotlarni “shuarosi” nomi bilan tahlil etgan Bobur avvalroq saroy beklari haqidagi bo'limda Alisher Navoiy haqida ma'lumotlarni ancha batafsil berib o'tganligi bois, so'zni Mavlono Abdurahmon Jomiy ijodidan boshlaydi. Uning ham dunyoviy, ham diniy bilimlar bo'yicha tengsiz ekanligini, *“mulloning kamolot darajasi shunday oliydirki, uni ta'riflashga ehtiyoj yo'qdur”*, degan fikridan ushbu zamona foziliga shoirning cheksiz ehtiromini ilg'ash mumkin. Va shu o'rinda Boburning *“... bu arzimas bitiklarimda ularning tabarruk nomlari va ozgina sifatlarini shunchaki savob uchun zikr etsam, degan fikr kechdi”* [Bobur Z.M., 2018:259], deyishida o'zining ham kamtarlik fazilati ko'rinadi.

Navbatdagi ijodkor Osafiy haqida uning asosan g'azal janrida ijod etganligini, tasvir jilolari va ma'nodan holi emasligini ta'kidlagan.

Binoyi ta'rifi asarda anchagina batafsil berilgan. Uning nasabi va ijodi haqidagi ma'lumotlardan tashqari Alisher Navoiy bilan munosabatlariga ham atroflicha to'xtanilgan. Ijodi haqida so'z borganda, shoirning sohibdevon ekanligi va mevalar haqida bir doston yozganligi, g'azallarida *“rang va kayfiyat bordir”*, degan ijobiy bahoni beradi. Mevalar haqidagi dostoni mutaqorib bahrida, *(samarasiz narsa)*, yana bir qisqa dostoni hafif bahrida yozilganligi aytib o'tishi aruz ilmi bilimdonining o'ziga xos bahosidir.

Binoyining Alisher Navoiyning tanqidi tufayli musiqa ilmini chuqur o'rganib, *“Nuhrang”* deb atalgan bir kuy bastalaganligi, to'qqiz rangning yakuni va naqshining yali-yalisi *“Rost”* ohangida ekanligi muallif tomonidan ta'kidlanadi. Aynan Binoyi ta'rifi keltirilgan qismda Navoiyning ko'p va yaxshi narsalar ixtiro qilganligidan har bir yaratilgan narsaga uning ismi bog'lanishi bilan bog'liq voqealar ham bayon etilgan.

Bobur Abdulloyi masnaviyo'g'y (dostonchi) haqida so'zlab, uning Hotifiy taxallusi bilan ijod qilganligini, *“Layli va Majnun”*, *“Haft manzar”* va *“Temurnoma”*, *“Xamsa”* dostonlariga naziralar tarzida yaratilganligi, lekin *“latofati shuhraticha emas”*ligini ta'kidlash orqali asarlarning saviyasiga o'ziga xos baho bergan.

Ma'lumki, muammo janrida ijod qilish har qanday ijodkorning ham qo'lidan kelavermagan. Mir Husayn Muammoiy mana shu janrning ustasi ekanligi, bu janrda hech kim uncha yozolmaganligini, butun vaqtini muammo topishga sarflashini, lekin faqir va baxtsiz kishi ekanligini aytish orqali ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Muammoiyning ijodini maqtagan adib Mullo Muhammad Badaxshiyga *“She'ri yuqorida zikr etilgan shoirlar she'richa emas. Muammo haqida bir risola yozgan. Muammosi ham uncha yaxshi emas...”*, kabi salbiy fikr bildiradi.

Boburning shoir Muhammad Solihga bergan tavsifi va ijodiga munosabati ham o'ziga xos bo'lib, shoir g'azallarining yoqimli ekanligini aytgani holda,

ularning “silliqligi (ya'ni shakli) mazasicha emas” ekanligini, turkiy she'rlarni ham yomon yozmasligini, Shayboniyxonga atab yozgan dostoni aruzning ramali musaddasi maxbun – “Subha” vaznida turkiycha doston ekanligini, lekin bu asar “*sust va bo'shtob*”ligini aytish orqali salbiy bahosini bildiradi. Fikrlarini yanada keskinlashtirib, “*uni (dostonni) o'qigan kishining Muhammad Solih she'riyatidan ko'ngli soviydi*”, degan munosabatibayon qiladi. Shoirning birgina yaxshi bayti sifatida quyidagi misralarni keltiradi:

Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,

Qildi Farg'onani tanbalxona [Bobur Z.M., 2018:259].

Dostonda bundan boshqa yaxshi bayti yo'q ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. “Yaramas, zolim tabiati va berahm kishi edi”, deya uning fe'l-atvori va tabiatidagi noqisliklarga baho beradi.

Hiloliy ijodi xususida so'z borganda, uning g'azallari tekis, silliq, rangdor va jaydari ekanligini aytadi. Sohibdevon ekanligini, bir dostoni bor bo'lib, uning mazmuni kovak (bo'sh) ekanligini qurilishi (kompozitsiyasi) xarob ekanligini, bu uning yaratgan timsollaridagi g'alizliklar orqali ma'lum bo'lganligini ta'kidlaydi. Ijobiy fikr esa “*Yana Hiloliy edi. Hozirgi vaqtda ham bordir. G'azallari tekis, ajoyib... Juda kuchli hofizasi bor emish: o'ttiz-qirq ming bayt yodida bor emish. Deydilarki, “Xamsa”ning aksar baytlari yodida bor...*” tarzida bayon qilinadi. “*Aruz, qofiya va she'r ilmiga ancha mohirdir*”, degan fikrlarida ham qarama-qarshilikni davom ettiradi.

Yana bir Ahliy degan shoirning xat-savodsiz bo'lsa ham, yozgan she'rlari yomon emasligini, devoni ham borligini aytish orqali, shoirlilik faqat savodli kishiga beriladigan maqom emasligiga e'tibor qaratadi.

Bobur tomonidan hattotlikda barchaning peshqadami, nasta'liq yozuvi ustasi Sultonali Mashhadiy alohida e'tirof etiladi. Uning Husayn Boyqaro va Navoiyning ko'plab matnlarini ko'chirganligi haqidagi ma'lumotlar beriladi.

Navbat musavvirlarga kelganda birinchi bo'lib, Behzod tilga olinadi. Uning musavvirlik ishi o'ta nozik deya baholansa-da, kamchiliklarini ham ko'rsatib o'tadi. Shoh Muzaffar degan kishining esa rang-tasvirni ko'p nozik chizishini, tasavvuf haqida ham bir asari bor bo'lganligi, lekin ko'p umr ko'rmaganligini achinish bilan esga oladi.

Qulmuhammad Udiy, Shayxiy Noiy, Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy kabi insonlarning sozandalik mahoratlariga ham turfa ta'riflar har birininng iste'dodiga muallif munosabati tarzida aks ettirilgan va ushbu ma'lumotlar ham qimmatligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi tahlillar Boburning adabiyot nazariyasini ham, xususan bu sohaning ilmlar uchligi hisoblangan ilmi qofiya, ilmi aruz va ilmi bade'ni ham mukammal bilganligini dalolatlaydi. Shuningdek, musavvirlik va musiqa ilmini ham baholay bilganligi uni inja hissiyot egasi ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, “Boburnoma” o'zining tarixiy va adabiy qiymati yuqoriligi bilan ajralib turadigan memuar asar hisoblanadi. U haqidagi jahon

olimlarining ijobiy fikrlari ham buni dalolatlaydi. Xususan, Ingliz sharqshunosi Monstyuart Elfinston: “Bu xotiralarda buyuk turkiy podshoning hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘a va pardalashlardan xoli. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. U o‘z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlarini va intilishlarini, qiliqlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir” [Monstyuart E., 2014:2] deya “Boburnoma”ga baho bersa, ingliz boburshunosi Leyn Puul: “Boburning xotiralari bir askarning harbiy yurish va chekinishlari haqidagi oddiy kundalik daftar emas; bu xotiralarda Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan, nozik va bilimdon kuzatuvchi, odamlarni sinchiklab o‘rganadigan, ular haqida xolis va odil fikr yurita oladigan mutaassir qalb egasining dunyo haqidagi shaxsiy taassurotlari va nozik fikrlari berilgan. Uning o‘z qiyofasini chizishdagi samimiyligi, fazilat va nuqsonlarini ham mardona tasvirlashi, ochiqko‘ngilliligi, haqqoniyligi va ajoyib hazilkashlik tuyg‘ulari bu go‘zal xotiralarning qadri va ahamiyatini yanada oshiradi”, deya o‘z e’tirofini bildirib o‘tadi.

“Boburnoma” asarida tasvirning realligi asosiy mezon ekanligini muallifning o‘zi ham alohida ta’kidlaydi: *“Chun bu tarixda andoq intizom qilibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va ishning bayoni voqe‘ini tahrir etilgay”* [Bobur Z.M., 2018:261].

Hammasidan ham Boburga hind mutafakkiri Javaharla’l Neruning bahosi o‘ziga xosdir: “Bobur dilbar shaxs, uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor inson bo‘lgan. U san’atni va adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi”.

Xulosa qilib aytilganda, Bobur adabiyotshunoslikning va san’atshunoslikning bilimdoni va mutafakkir inson bo‘lganligi yuqoridagi tahlillardan ayonlashadi. “Boburnoma” asari Boburning hayoti davomida bosib o‘tgan masofa kengligidagi hududning o‘ziga xos jihatlarni o‘rganishgagina asos bo‘lib qolmasdan, balki o‘sha davr ijodkorlari va asarlari haqidagi qimmatli ma’lumotlarni beruvchi manba vazifasini o‘tashiga ham shubha qilmasa bo‘ladi. Boburning ijod ahliga asosli munosabati uning munaqqidlik jihatini ham ko‘rsatgan.

Adabiyotlar:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2018. – 528 b.
2. Faizullayeva, O. H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 14, 20-29.
3. Fayzullayeva, A. (2010). Özbek Şairi Rauf Parfi Öztürk’ün Şiir Dünyası. Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi, 10(2), 173-184.
4. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.



5. <https://n.ziyouz.com/books/ilmiy-tarixiy-risolalar/Hasan.Qudratullayev,Sultonmurod.Olim.mutafakkir.pdf>.
6. Jalilov Sayfiddin. Bobur haqida o‘ylar. Bobur haqida o‘ylar. – T.: Sharq, 2006. – 112 b.
7. Kholbekovna, F. O. (2021). THE ISSUE OF ARTISTIC IDEA IN POETRY. *European Scholar Journal*, 2 (4), 233-236.
8. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
9. Kholbekovna, F. O., & Dehqonovna, D. G. (2020). The Hero Issue In The Lyrics. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(8), 3409-3413.
10. Kholbekovna, F. O., & Oglu, E. B. J. (2021). Development and Improvement of Cyclicity. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 12049-12054.
11. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
12. Qudratullayev Hasan. “Boburnoma” asrori kaliti./Bobur – olim va mutafakkir. To‘plam. – T., 2008.
13. Rakhmonkulovich, M. M. (2021). Folklore traditions in the epos of sayyadi “Tohir and Zuhra”. *Academia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 548-556.
14. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi “Tohir And Zuhro”. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 4-10.
15. Sanaqulov Usmon. Buyuk iste’dod sohibi Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiyati va ijodiy faoliyati. //Xorijiy filologiya. №1, 2018-yil.
16. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. –T.: “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2014. – 665 b.